Abstract: In conditions of increasing demand of the population of the republic for food products, especially fish, the introduction of intensive technologies in the fishing industry, the cultivation of fish and fish products in the regions based on world standards, and the creation of enterprises for their processing are among the primary tasks requiring urgent decisions. leadership of this industry.

In connection with the above, this article analyzes in detail the features of the fishing industry of the Republic of Uzbekistan, as well as the scientific activities of some scientists and researchers to improve this industry, and indicators for assessing production efficiency. Ponds in fish farms were also studied by dividing them into different groups depending on the service provided.

The organization of production in pond farms depends on the level of technical equipment of the pond stock on a scientific basis. In the context of climate change, specific characteristics of the fishing industry are grouped, important issues of fish production and assessment of the efficiency of this industry are considered.

Key words: food security, production, price, public consumption, modern technologies, biological resources, “fishing”, “bio-fish product”, all farmed fish, stocking, larvae, fry, “pond farms”.

Аннотация: В условиях, когда потребность населения республики в пищевых продуктах, особенно в рыбе, возрастает, актуальны такие вопросы, как внедрение интенсивных технологий в рыбной отрасли и создание предприятий по выращиванию рыбы и рыбной продукции на основе о мировых потребностях и их переработке в регионах Это один из актуальных вопросов, стоящих перед специалистами отрасли.

Поэтому в данной статье подробно анализируются особенности рыбной отрасли, выделяются показатели оценки эффективности производства. Также пруды в рыбных хозяйствах были разделены на разные группы в зависимости от предоставляемого сервиса.

Организация производства в прудовых хозяйствах зависит от уровня технической оснащенности прудового фонда на научной основе. В контексте изменения климата были сгруппированы уникальные характеристики рыболовной сети и рассмотрены важные вопросы рыбного производства и оценки эффективности сети.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, производство продукции, цена, потребление населением, современные технологии, биологические ресурсы, «рыболовство», «биорыбный продукт», вся рыба в выращивании, рыба-наполнитель, личинки, раки, «прудовые хозяйства».

## KIRISH

Respublikada oziq-ovqat havfsizligini ta’minlash, mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, bozorlarni arzon va sifatli baliq mahsulotlari bilan to‘ldirib borish hamda mahsulotlar narx-navolarini barqarorligini saqlashga qaratilgan bir qator maqsadli dasturlar qabul qilinib, uning ijrosi samarali ta’minlanmoqda. Bundan ko‘zlangan maqsad shuki, oziq-ovqat havfsizligini ta’minlash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hisobiga baliq yetishtirish hajmlarini keskin oshirish hamda aholi iste’moli uchun ichki bozorlarga arzon va sifatli baliq mahsulotlarini etkazib berish, intensiv usulda baliq yetishtirishni ko‘paytirish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish hamda sohadagi mavjud muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Tarmoqning ushbu xususiyatlarini nazariy jihatdan mahalliy olimlarimizlarning tadqiqotlarida alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, baliqchilik tarmog‘i boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda marketing yondashuvlar asosida tarmoq samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar shular jumlasidandir. Xususan, B. A. Sarsenbayevning [2021] baliqchilik tarmog‘ini marketing yondashuvlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlari natijasida “baliqchilik sohasi ishlab chiqarishda biologik resurslarni ko‘paytirish, gidrosfera va hududlarning ekologik xavfsizligini ta’minlash asosida aholi iste’molida zarur baliq va baliq mahsulotlarini yetishtirishning marketing usullari ishlab chiqilgan”[1]. Tadqiqotchi U. X. Beglayev [2020] esa muammoning boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, “baliqchilik menejmenti” va “biobaliq mahsuloti” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni”[2] nazariy jihatdan batafsil yoritilgan.

Shuningdek, iqtisodchi olimlar A. Muxtorov va U. Sadullayevlar [2018] baliqchilik sohasini rivojlantirish omillari va o‘ziga xos jihatlariga to‘xtalib o‘tib, quyidagilarni ta’kidlab o‘tganlar: “... baliq yetishtirishda hududiy shart-sharoit, baliq yetishtirilayotgan suv havzalarining joylashgan joyi, o‘lchami, relyefi, konfiguratsiyasi, eng muhimi suv ta’minoti va uning barqarorligi soha istiqbolini belgilovchi eng muhim tashkiliy omillardan hisoblanadi”. Ushbu olimlar tarmoqni barqaror rivojlanishiga ta’sir qiluvchi iqtisodiy-me’yoriy, texnologik omillar hamda suv ta’minotining barqarorligini asosiy mezon sifatida qaraydilar.

I. O. Yunusovning [2020] tadqiqot ishlarida aynan baliqchilik tarmog‘ining rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari tizimlashtirilgan holda boshqa tarmoqlardan keskin farq qiluvchi xususiyatlaridan biri bu “baliqchilik xo‘jaligida hovuz asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanishi”ga[3] alohida urg‘u qaratilgan. Ammo, tadqiqotda hovuzdan foydalanish samaradorligi, mavjud muammolar hamda kuzatilayotgan tendensiyalar doirasida tahlillar amalga oshirilmagan.

Ma’lumki, ilmiy adabiyotlarda hovuz baliqchiligi yer fondi va hovuz fondidan tashkil topishi qayd etilgan. Ya’ni, yer fondi deyilganda baliqlarni ko‘paytirish va parvarishlash hamda boshqa maqsadlarda foydalanish uchun xo‘jalikka biriktirilgan jami yer maydoni tushunilsa, hofuz fondiga hovuz baliqchiligi usuli bilan baliqlarni ko‘paytirish va parvarishlash uchun maxsus moslashtirilgan, baliq hovuzlari va boshqa suv havzalari bilan band bo‘lgan yerlar kiritilgan.

Shu munosabat bilan bizning fikrimizcha, hovuz baliqchiligi muhim manba sanalgani holda, baliqchilikning maxsus hovuzlar yoki inshootlarda baliqlarning tez o‘sadigan turlarini ko‘paytirish bilan shug‘ullanadigan quyi tarmog‘i hisoblanadi.

---

1 B. A. Sarsenboyev. Baliqchilik sohasi rivojlanishini marketing yondashuvlari asosida takomillashtirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida), Monografiya, T.: “Lesson Press” MChJ nashriyoti, 2021. – B.141.

2 R. X. Ergashev, S. R. Xalikov, U. X. Beglayev. Baliqchilik iqtisodiyoti. Darslik, – T., “Navro‘z” nashriyoti, 2020. – 298 b.

3 I. A. Yunusov. Baliqchilik tarmog‘ini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo‘llari. i.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2020. – 136 b.

## METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan keng foydalanilgan.

## NATIJALAR

Hovuz baliqchiligida hovuz fondi asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi, lekin asosiy ishlab chiqarish vositalari tarkibiga kiritilmaydi. Zero, u ishlab chiqarish vositasi sifatida boshqa fondlardan oʻziga xos xususiyatlarining mavjudligi bilan farqlanadi:

- "... hovuz maydoni jismoniy yoki ma'naviy eskirishi oqibatida yaroqsiz holatga kelganida, boshqa asosiy vositalar kabi almashtirilishi mumkin emas;
- boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqli, hovuz tubining mahsuldorligi boʻyicha eskirmaydi, aksincha, toʻgʻri foydalanilganda nafaqat suv havzasi gidrokimyoviy rejimining shakllanishiga, balki baliqlar uchun tirik ozuqalarning koʻpayishi hamda rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir koʻrsatadi;
- hovuz maydonidan foydalanish faqat tabiiy ozuqa bazasi hisobiga baliq mahsulotlari yetishtirish bilan chegaralanib qolmaydi, balki uni sun'iy ozuqalar hisobiga koʻpaytirilishi mumkin"[4].

Baliqchilik xoʻjaliklarida hovuzlar xizmat koʻrsatilishiga koʻra turli guruhlarga ajratish mumkin. Ya'ni suv bilan ta'minlovchi, baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish, kasallangan baliqlarni sanitariya-profilaktika va karantin-izolyator hovuzlarida boqish hamda yordamchi (qafas) hovuzlar.

Hovuz xoʻjaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etish hovuz fondining texnik asbob-uskunalar bilan ta'minlanganlik darajasiga bogʻliq. Hovuz fondining texnik asbob-uskunalar bilan ta'minlanganlik deganda uning gidrotexnik inshootlar (plotinalar, dambalar, suvni boshqaradigan qurilmalar, nasos stansiyalari, baliq ovlagichlar va h.k.) jihozlanish darajasi va sifati tushuniladi. Bunday inshootlar hovuz fondining aktiv qismi hisoblanadi va baliq mahsuldorligini oshirishning mavjud imkoniyatlarini belgilaydi.

Hovuz fondi texnik asbob-uskunalar bilan ta'minlanganligining iqtisodiy koʻrsatkichlari hovuz maydoni birligining balans qiymati va inshootlar guruhi qiymatining hovuz baliqchiligidagi asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymatidagi ulushi hisoblanadi. Hovuz fondining texnik asbob-uskunalar bilan ta'minlanganligi inshootlar qiymatining asosiy ishlab chiqarish vositalari umumiy qiymatidagi ulushi bilan tavsiflanadi.

Global iqlim oʻzgarishlari sharoitida baliqchilik xoʻjaliklarining tashkil etish, ekologik muvozanatni ta'minlash, iqtisodiy samarali faoliyatni tashkil etish hamda texnologik yangilanib borishini inobatga olgan holda ushbu jihatlarni oʻz ichiga qamrab olgan oʻziga xos xususiyatlarini e'tiborga olishni taqazo etmoqda. Tadqiqotlarimiz asosida iqlim oʻzgarishlari sharoitida baliqchilik tarmogʻining oʻziga xos xususiyatlarini quyidagicha guruhlash mumkin, deb hisoblaymiz (1-rasmga qarang).

Xususan, tashkiliy jihatlari sifatida baliqchilik xoʻjaliklarini tashkil etish suv ta'minoti va uning oqimi yoʻnalishiga bevosita bogʻliqligi hamda baliqchilik xoʻjaliklarini tashkil etishda suvning biologik holati (tozalik darajasi, tarkibi, mavsumiy oqimi)ga bogʻliqligi kabi xususiyalarni kiritish mumkin.

Eklogik jihatdan esa, baliqchilik xoʻjaligining quvvati suvning ekologik holatiga (me'yordan oshsa ifloslaydi, kam boʻlsa suvni tozalaydi) bevosita ta'sirga egaligi hamda baliq chiqindilari suv havzasida biologik xilma-xillikning sogʻlomlashishiga ijobiy ta'sir koʻrsatishi kabi oʻziga xosligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, iqtisodiy jihatdan kichik hajmli baliqchilik xoʻjaliklarida yetishtirilgan mahsulot natura yoki tovar mahsuloti sifatida foydalanish imkoniyati yuqoriligini hamda mehnat sigʻimi nisbatan kichikligi va ilmiy hajmdor mehnatga talabi yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Oʻz navbatida texnologik oʻziga xosligi sifatida baliqchilik xoʻjaligida baliq zoti kesimida suv sifatida va haroratiga talab oʻzgarib borishi, intensiv baliqchilik rivojlanishi sharoitida daryo baligʻiga talabning ortishi, mahsulot sifati etilgan baliq bilan emas balki pishirilgan holatida baho berilishi kabilarni kiritishimiz mumkin.

Yuqorida qayd etilgan baliqchilik tarmogʻining oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish va tarmoq samaradorligini baholash muhim masalalardan sanaladi.

Xususan, hovuz fondidan foydalanish samaradorligini baholashning muhim koʻrsatkichi boʻlib, umumiy baliq mahsuldorligi va inshootlar qiymatining bir birligiga toʻgʻri keladigan baliq mahsuloti bilan tavsiflanadi. Ya'ni, bir gektar yaylov hovuziga toʻgʻri keladigan inshootlar qiymati ulushining oshishi bilan hovuz fondidan foydalanish samaradorligi oʻsadi.

Shuningdek, baliqchilik xoʻjaliklarida asosiy vositalar, ishlab chiqarish zaxiralari (materiallar) va aylanma mablagʻlarlarning foydalilik darajasi koʻrsatkichi ham muhim koʻrsatkichlardan boʻlib, bunda ayniqsa, asosiy vositalar va ishlab chiqarish zaxiralardan samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilishi talab etiladi.

4 В. И. Радюк. Прудовый фонд рыбоводного предприятия. Главное управление образования, наука и кадров. https://refdb.ru/look/2680869.html




1-rasm: Mamlakatimizda iqlim o‘zgarishlari sharoitida baliqchilik tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari[5]

Baliqchilik xo‘jaliklarida ishlab chiqarish sohasidagi aylanma kapital o‘z navbatida quyidagilarga bo‘linadi:

a) ishlab chiqarish zaxiralari (baliqlantirish materiallari, ozuqalar, o‘g‘itlar, yoqilg‘ilar, idishlar, ehtiyot qismlar, inventar va jihozlar, ov qurollari, baliqlarni kasalliklardan himoyalash vositalari);

b) tugallanmagan ishlab chiqarish (o‘stiruvdagi barcha baliqlar, jumladan, to‘ldiruvchi to‘dadagi baliqlar ham);

d) o‘zida tayyorlangan yarim fabrikatlar (sotish uchun mo‘ljallangan o‘stiruv va qishlov hovuzlaridagi baliqlantirish materiallari) va sotib olingan yarim fabrikatlar (lichinkalar, chavoq(malek)lar, bir yillik baliqlar).

Xo‘jalikning muoamaladagi aylanma mablag‘lari esa sotish uchun mo‘ljallangan tayyor mahsulotlar va pul mablag‘lari: hisob-kitob scheti, v kassa, bankdagi boshqa schetlar.

Ushbu mablag‘lardan foydalanish samaradorligini baholashda baliqchilik xo‘jaliklarida kreditor qarzlarning kunlik aylanmasi va debitor qarzlarning kunlik aylanmasi ko‘rsatkichini hisoblash ham kerak bo‘ladi. Bunda kunlik aylanmani kamaytirish uchun kreditor va debitor qarzlarning miqdorini kamaytirish va muddatini o‘tkazib yubormaslik hamda mahsulot hajmi va foydani oshirish choralari ko‘rilishi lozim.

Shuningdek, baliqchilik xo‘jaliklarida qoplash koeffitsienti, ya’ni to‘lovga qobiliyatlilik ko‘rsatkichi yaxshi bo‘lishi, ya’ni ma’lum bir davrga (oy, chora, yil) to‘lov mablag‘lari jami summasi to‘lov mablag‘lari jami summasidan ko‘p bo‘lishi lozim.

Debitorlik qarzdorlikning pasayish ko‘rsatkichi ham baliqchilik tarmog‘i samaradorligini baholashning muhim ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. Debitorlik qarzlari muddatini o‘tkazib yubormaslik, o‘z vaqtida to‘lanmagan debitorlik qarzlari uchun penya hisoblanishi va to‘lanishi natijasida ortiqcha xarajatlar qilinishining oldini oladi.

Shuningdek, baliqchilik tarmog‘ida iqtisodiy samaradorlikning qo‘shimcha muhim ko‘rsatkichlari mavjud. Xususan:

Baliqchilik xo‘jaliklarida asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti oshib ketmasligi va yangilash koeffitsienti esa yuqoriroq bo‘lishi talab etiladi. Buning uchun eskirib bo‘lgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va yangi, zamonaviy asosiy vositalarni sotib olib ta’minlash kerak bo‘ladi.

5 Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Baliqchilik xo'jaliklarida mehnat unumdorligi ko'rsatkichi ham muhim ko'rsatkichlardan bo'lib, xodimlarni mutaxassisligi bo'yicha ishga jalb etish, ularning malakasini oshirib borish hamda bajargan ish miqdori va sifatiga qarab haq to'lashga katta e'tibor qaratilishi lozim. Shunda xodimlarning foydali ish koeffitsienti ham yuqori bo'ladi.

Baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti hamda energiya samaradorlik ko'rsatkichlari ham muhim ko'rsatkichlardan bo'lib, bunda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va mahsulot qiymati tarkibida energiya xarajati ulushini kamaytirish choralari ko'rilishi lozim.

Baliqchilik xo'jaliklarida jami ishlab chiqarilgan mahsulot hajmida innovatsion mahsulotning ulushi ko'rsatkichi ham muhim ko'rsatkichlardan bo'lib, mahsulot hajmida innovatsion mahsulotning ulushini oshirish choralari ko'rilishi lozim. Bunda ilm-fan yutuqlari va ilg'or axborot texnologiyalarini qo'llagan holda mahsulot ishlab chiqarishga e'tibor qaratish zarur bo'ladi.

Baliqchilik xo'jaliklarida har bir ishchi hisobga olingan holda xodimlarni o'qitish xarajatlari aniq belgilab qo'yish va bunga amal qilish lozim. Xodimlar ishlashi uchun etarli shart-sharoitlarni yaratish kerak. Bu esa, kadrlar qo'nimsizligi koeffitsientining oshib ketmasligiga ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda bizning fikrimizcha, baliqchilik xo'jaliklarida investitsiya dasturini pul ko'rinishida ijro qilish indikatori, quvvatlarni ishga tushirish parametrlarini bajarish indikatori hamda eksport parametrlarini bajarish ko'rsatkichlari ham muhim ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Ma'lumki, mamlakatimizda "hovuz xo'jaliklari ishlab chiqarish usuliga qarab: ekstensiv, yarim ekstensiv va intensiv usullarga bo'linadi"[6].

a) ekstensiv yo'l o'zgarmas ishlab chiqarish vositalariga asoslanib, bunda bir birlik ishlab chiqarish resurslariga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmining ko'payishi asosan, texnologiya, texnik daraja va ishlab chiqari tuzilmasini o'zgartirmasdan, ularning miqdor o'sishi natijasida (suv havzalarini ko'paytirish hisobiga) erishiladi.

b) intensiv yo'l yangi, zamonaviy va samarali ishlab chiqarish vositalari, innovatsion texnologiyalar, shu jumladan asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan asosiy to'dadagi baliqlarni (yangi zotlar, turlar va b.) qo'llash, hamda mavjudlarini takomillashtirish va yangi baliq zotlarini yaratish, baliqlarni oziqlantirish, parvarishlash va saqlash darajasi takomillashtirishga asoslanadi.

Ekstensiv, yarim ekstensiv va intensiv usullarda baliq yetishtirish b.f.d., professor B.G.Komilov tomonidan batafsilroq tasniflangan (1-jadval).

1-jadval: Intensiv usuldagi baliq yetishtirish texnologiyaning tasnifi[7]

| № | Texnologiya | Tavsif | Samaradorlik |
|---|---|---|---|
| 1 | Ekstensiv usulda | Baliqlar asosan o'g'itlar bilan ta'minlab turiladigan tabiiy ozuqa hisobiga ulg'ayadi. | 0,13 kg/m$^3$ |
| 2 | Yarim intensiv usulda | Baliqlar ham tabiiy, ham qo'shimcha ozuqa hisobiga ulg'ayadi. | 0,2 kg/m$^3$ |
| 3 | Intensiv usul | Baliqlar faqat sun'iy, to'yimliligi yuqori bo'lgan ozuqa hisobiga ulg'ayadi. | 40 kg/m$^3$ va undan ko'proq |

*b.f.d.,professor Komilov B.G. O'simliklar va hayvonot olami genofondi instituti, ixtiologiya, gidrobioliya va akvakultura laboratoriya.

Demak, ishlab chiqarishning ekstensiv va intensiv usuli bir vaqtda mavjud bo'lib, o'zaro chambarchas bog'liqdir. Ma'lum bir davrlar oralig'ida u yoki bu yo'lning oshishi kuzatiladi. Ishlab chiqarish miqdor jihatdan o'sib borgani sayin, uning zamirida asosiy omillar rivojlanishining sifatini o'zgartirish manbalari vujudga keladi. Bunda ishlab chiqarish asosiy omillarining sifat o'zgarishi jarayoni faollashadiki, birinchidan, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi yuqori, ikkinchidan, ishlab chiqarish resurslari (mehnat, moddiy, moliyaviy va tabiiy, eng avvalo hovuz fondi) balansining yo'naltirilganligi yuqori.

Ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining bu bosqichi o'tish davri bo'lib, bu davr davomida iqtisodiy o'sishning ekstensiv manbalari o'rnini intensivlari egallashi sodir bo'ladi.

Shunday qilib, baliqchilikni intensivlashtirish – bu ishlab chiqarish ob'ekti sifatida baliqning o'zini, xo'jalikning moddiy-texnika bazasini, yangi ishlab chiqarish vositalari bilan jihozlanganligini, innovatsion texnologiyalarni qo'llashni hamda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish va bir birlik ishlab chiqarish resurslari hisobiga yuqori sifatli mahsulotlar chiqishini ko'paytirish maqsadida inson omilini faollashtirish asosida rivojlanib boruvchi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni.

Intensivlashtirishdan asosiy maqsad – bir gektar suv havzasidan minimal xarajat evaziga yuqori daromad olishdan iborat. Baliqchilik xo'jaliklarida intensivlashtirish quyidagilar hisobiga amalga oshiriladi: ishlab chiqa-

6 Shohimardonov D.R. Mintaqalarda baliqchilikni rivojlantirish, "HILOL MEDIA" MChJ, Toshkent-2010, – B.26.

7 Komilov B.G., Xalilov I.I. Daryo forelini yetishtirish – O'zbekistondagi fermerlar uchun yuqori daromadli agrotijoriy imkoniyat. Yer energiya bioloxillik, Axborot byulleteni, № 5, 01.12.2014 y., – B.24.

rishni tashkil etishni va biotexnikani takomillashtirish; sun’iy ozuqalardan foydalanish; baliqlarni oziqlantirish, hovuzlar meliorativ holatini yaxshilash va o‘g‘itlashning yangi texnologiyalarini qo‘llash; havzani baliqlantirish zichligini oshirish hisobiga baliq mahsuldorligini oshirish, har xil tur va yoshdagi baliqlarni birgalikda parvarishlash, biostimulyatorlarni qo‘llash, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish va boshqalar.

Aytish joizki, intensivlashtirish bir gektar suv havzasiga qo‘shimcha xarajatlarni talab qiladi, ammo ular faqat, agar baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning qo‘shimcha o‘sishi qo‘shimcha xarajatlarning o‘sish sur’atidan yuqori bo‘lsagina samarali hisoblanadi. Ushbu maqsadda innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish muhim bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Ya’ni:

a) mehnat resurslarini tejovchi intensivlashtirish – ishchilar sonini kamaytirishga qaratiladi;

b) fondlarni tejovchi intensivlashtirish – (hovuz fondi, unga biriktirilgan yer maydoni, asosiy vositalar, aylanma mablag‘lar va h.k.) unumdorligi yuqoriroq mashinalarni qo‘llashga yo‘naltirilgan;

d) material tejovchi intensivlashtirish – mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan xom ashyo, materiallar, yoqilg‘i, elekr energiyasi va boshqa resurslarni tejashga yo‘naltirilgan.

Intensivlashtirish darajasi parvarishlanayotgan ob’ektga (iliq suv baliqlari, sovuq suv baliqlari), joylashgan yeriga, xo‘jalik yuritish tizimiga (ekstensiv, yarimintensiv, intensiv) bog‘liq. Baliqlarni yaylov texnologiyalari (ko‘l tovar baliqchiligi, ayrim hovuz xo‘jaliklari va b.) asosida parvarishlash ekstensiv yo‘l, maxsus ozuqalar va moslamalar (industrial-iliq suvli xo‘jaliklar) yordamida amalga oshirish esa intensiv yo‘l hisoblanadi.

Umuman olganda, bizningcha baliqchilikni intensivlashtirish ko‘rsatkichlarini quyidagi uchta guruhga bo‘lib tavsiflash mumkin (2-rasmga qarang):




2-rasm: Baliqchilikda intensivlashtirish darajasiga baho berishda ko‘rsatkichlar tizimi[8]

*1-guruh.* Intensivlashtirish darajasi ko‘rsatkichlari. Ular intensivlik darajasini tavsiflaydi va omilli, ya’ni hovuzlar maydonining bir birligiga to‘g‘ri keladigan mablag‘lar va mehnat sarfining konsentratsiyalashuvi hisoblanadi.

*2-guruh.* Natijaviy ko‘rsatkichlari. Bular intensivlashtirish natijalarini xarajatlar bilan solishtirmasdan tavsiflaydi. Natijaviy ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi: havzaga baliq qo‘yish zichligi, baliq mahsuldorligi, baliqlar bosh sonining saqlab qolinishi.

*3-guruh.* Intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari. Bular intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini tavsiflaydi va mablag‘ va mehnat sarflarining qaytimi (qoplanishi) to‘g‘risida xulosa chiqarishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, mahsulotlarnig o‘sish sur’atlari, ularni ishlab chiqarish xarajatlarining o‘sishiga qaraganda yuqoriligi bilan ifodalanadi.

Shundan kelib chiqqan holda tovar baliqchiligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi darajasini asosiy mezon bajarilishini e’tiborga olgan holda quyidagi uchta pog‘onaga bo‘lish asosida baholashni tavsiya etamiz (3-rasmga qarang).

8 Mualliflarning tadqiqotlari asosida tuzilgan

| Baliqchiligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi darajasi | | | |
|---|---|---|---|
| **Nomi** | **Ko'rsatkichi** | **Asosiy me'zoni** | **Erishiladigan natijalar** |
| **1-pog' ona (yarim intensiv)** | qo'shimcha samara qo'shimcha xarajatlardan 30-50 foizgacha yuqori bo'ladi | Hovuz maydoni kamayishi va chavoqlar bosh soni ortishi, bir yilda ikki marta hosil olinishi lozim | Sarflangan mablag'lar baliqchilikda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlaydi |
| **2-pog' ona (intensiv)** | qo'shimcha samara qo'shimcha xarajatlardan 50 foizdan yuqori bo'ladi | Hovuz maydoni va baliq bosh soni kamayishi (mahsuldorlik ortishi), yiliga uch va undan ortiq hosil olinishi lozim | Bunda sarflangan mablag'lar baliqchilik biznesini kengaytirish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi |
| **3-pog' ona (an' anaviy)** | qo'shimcha samara qo'shimcha xarajatlardan past bo'ladi. | Hovuz maydoni ortadi, baliq bosh soni ortishi, yiliga bir marta hosil olingan holatda | Intensivlashtirish jarayoni samarasiz amalga oshiriladi |

3-rasm: Baliqchiligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi darajasi[9]

*1-pog'ona.* Bunda qo'shimcha samara qo'shimcha xarajatlardan 30-50 foizgacha yuqori bo'ladi. Ya'ni, QS>QX. Bunda sarflangan mablag'lar baliqchilikda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Ammo, keng tarmoqda tovar baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hamda biznesni kengaytirish imkoniyati past darajada bo'ladi.

*2-pog'ona.* Bunda qo'shimcha samara qo'shimcha xarajatlardan 50 foizdan yuqori bo'ladi. QS>QX. Bunda sarflangan mablag'lar baliqchilik biznesini kengaytirish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi;

*3-pog'ona.* QS<QX. Bunda qo'shimcha samara qo'shimcha xarajatlardan kam bo'ladi va intensivlashtirish jarayoni samarasiz amalga oshiriladi.

Ma'lumki, baliqchilik xo'jaligi bo'yicha intensivlashtirish darajasining umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari hisob-kitob qilish uslublarini ishlab chiqish muhim masalalardan sanaladi. Ular hovuz baliqchiligida intensivlashtirishning mohiyatini tavsiflaydi va quyidagi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi:

a) Foydalanilayotgan 1 ga hovuz maydoniga to'g'ri keladigan baliqchilikka mo'ljallangan asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymati va joriy ishlab chiqarish xarajatlari ( eskirishsiz) , ming so'm/ga:

$$I = (F_o + P_{za}) : S_v, \quad (1)$$

Bunda, I – butun baliqchilik xo'jaligi bo'yicha intensivlik darajasi, so'm/ga;
$F_o$ – asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymati, ming so'm;
$P_{za}$ – joriy ishlab chiqarish xarajatlari (eskirishsiz), ming so'm/ga;
$S_v$ – ishlatilayotgan hovuzlar maydoni, ga.

Bu ko'rsatkich butun baliqchilik xo'jaligining intensivlik darajasini tavsiflaydi va ishlatilayotgan 1 ga hovuz maydoniga to'g'ri keladigan moddiy va mehnat resurslarining konsentratsiyalashuv darajasini ko'rsatadi. Chunki hovuzlar maydonidan foydalanish darajasi ularning ushbu resurlar bilan ta'minlanganligiga bog'liq.

b) qo'shimcha, samaraliroq ishlab chiqarish resurslari qiymatining ishlatilayotgan hovuzlar maydoniga nisbati , ming so'm/ga:

$$I = DR_p : S_v, \quad (2)$$

Bunda, I – butun baliqchilik xo'jaligi bo'yicha intensivlik darajasi, ming so'm/ga;
$DR_p$ – qo'shimcha ishlab chiqarish resurslari, ming so'm;
$S_v$ – ishlatilayotgan hovuzlar maydoni, ga.

9 Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

Fermer xo'jaligida foydalanilayotgan 1 ga hovuz maydoniga to'g'ri keladigan qo'shimcha mahsulotlar o'sishi (joriy yildagi 1 ga hovuz maydoniga to'g'ri keladigan asosiy vositalar yillik o'rtacha qiymati (eskirishsiz) va joriy ishlab chiqarish xarajatlari qiymati bilan oldingi yildagi xuddi shunday ko'rsatkich o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi).

Fikrimizcha, intensivlik darajasini tavsiflaydigan qo'shimcha ko'rsatkichlar ham hisob-kitob qilinishi zarur. Bu ko'rsatkichlar intensivlik darajasi umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarining mohiyatini chuqurroq ochib beradi:

a) 1 ga ishlatilayotgan hovuz maydoniga to'g'ri keladigan asosiy vositalar yillik o'rtacha qiymati, ming so'm/ga:

$$I = F_o : S_v, (3)$$

Bunda, I – butun baliqchilik xo'jaligi bo'yicha intensivlik darajasi, ming so'm/ga;

$F_o$ – asosiy vositalar yillik o'rtacha qiymati, ming so'm;

$S_v$ – ishlatilayotgan hovuz maydoni, ga.

Bu ko'rsatkich intensivlik darajasini xo'jalikning asosiy vositalar bilan jihozlanganligiga bog'liq holda ifodalaydi. Hovuz maydoni birligiga to'g'ri keladigan asosiy vositalar qiymatining o'sishi bilan ulardan foydalanishning intensivlik darajasi ham oshadi. Asosiy vositalar aylanma mablag'larning oqilona ishlatilishini ham ta'minlaydi, chunki ular bilan ishlab chiqarish jarayonida ajralmas bog'liqlikda faoliyat ko'rsatadi.

b) buyumlashgan va jonli mehnatning joriy ishlab chiqarish xarajatlari umumiy summasining ishlatilayotgan hovuz maydoniga nisbati, ming so'm/ga;

$$I = P_z : S_v, (4)$$

Bunda, I – baliqchilik xo'jaligi bo'yicha intensivlik darajasi, ming so'm/ga;

$P_z$ – baliqlarni parvarishlash uchun qilingan joriy ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm;

$S_v$ – ishlatilayotgan hovuz maydoni, ga.

Shuningdek, intensivlashtirishning mohiyatini chuqurroq ochib beradigan hamda intensivlik darajasini tavsiflaydigan qo'shimcha ko'rsatkichlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: baliqlarning 1 s. qo'shimcha o'sishiga to'g'ri keladigan ozuqa xarajatlari; 1 s. mahsulotga to'g'ri keladigan jonli mehnat xarajatlari.

Hovuz baliqchiligida natijadorlik ko'rsatkichlari aniqlash ham muhim hisoblanadi. Ular intensivlashtirish natijalarini xarajatlar bilan taqqoslamasdan tavsiflaydi.

Umuman olganda intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi hisob-kitob qilishda: joriy ishlab chiqarish xarajatlarining 100 so'miga va yillik o'rtacha bitta ishchiga to'g'ri keladigan yalpi va tovar mahsulot, fond qaytimi va mahsulotning fond sig'imi, ishlab chiqarish rentabelligi, foyda, mehnat unumdorligi, mahsulot birligining tannarxi kabi ko'rsatkichlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Baliqchilik tarmog'ining biologik, tashkiliy-texnologik, iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini o'rganish shuni tasdiqladiki, tarmoq samaradorligini oshirishning muhim omillaridan yana biri baliq mahsuldorligi hisoblanadi.

Demak, baliq mahsuldorligi – bu bitta vegetatsiya davrida baliqlarni tabiiy va sun'iy ozuqalar (omuxta yem va b.) bilan oziqlantirish hisobiga bir gektar hovuzdan olinadigan jami qo'shimcha o'sish og'irligi bilan aniqlanadi.

Baliq mahsuldorligi baliq mahsulotidan baliqlantirish materiallari (lichinkalar yoki chavoqlar, bir yilliklar, ikki yilliklar) og'irligini chegirib tashlash yo'li bilan aniqlanadi.

Baliq mahsuldorligi tabiiy ozuqa bazasi va sun'iy ozuqalar hisobiga olinadigan mahsuldorlikka bo'linadi. Tabiiy ozuqalar hisobiga mahsuldorlik – bu bitta vegetatsiya mavsumida baliqlarni faqat tabiiy ozuqalar bilan oziqlantirish hisobiga bir gektar hovuzdan olinadigan jami qo'shimcha o'sish og'irligi hisoblanadi.

Hovuzlarning tabiiy ozuqalar hisobiga mahsuldorligi bo'yicha hozirgacha tasdiqlangan normativlar mavjud emas. Shu bois, soha mutaxassislarining ma'lumotlariga tayanamiz. Xususan, sohaning etakchi olimlari va mutaxassislari B. G. Kamilov, R. B. Kurbanov va T. V. Salixovlar yozishicha: "sun'iy hovuzlarda hech qanday tadbir olib borilmagan taqdirda ham unda xuddi ko'ldagidek tabiiy jarayonlar kechaveradi. Baliq ovlasa ham bo'ladi. Natijalar ham xuddi ko'ldagidek – yiliga 15-40 kg/ga tashkil etadi"[10]. Shuningdek, S. Q. Xusenov, D. S. Niyozov va G'. M. Sayfullayevlar yozishicha: "o'rtacha tabiiy baliq mahsuldorligi, karp bo'yicha 70-260 kg/ga"[11].

Shuningdek, sun'iy ozuqalar hisobiga mahsuldorlik – bu bitta vegetatsiya mavsumida baliqlarni sun'iy ozuqalar (omuxta em va b.) bilan oziqlantirish hisobiga 1 ga hovuzdan olinadigan jami qo'shimcha o'sish og'irligi

10 Kamilov B.G., Kurbanov R.B., Salixov T.V. Baliqchilik (O'zbekistonda karp baliqlarini ko'paytirish), Toshkent, "Chinor" ENK, 2003, – B.13.

11 Xusenov S.Q., Niyozov D.S. va Sayfullayev G'.M. Baliqchilikchilik asoslari (oliy o'quv yurtlari talablari uchun o'quv qo'llanma), "Buxoro" nashriyoti, 2010, – B.99.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

bo'lib, bu ko'rsatkich, yuqorida sanab o'tilgan, baliqlarning tabiiy mahsuldorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar (vegetatsiya davrining qancha davom etishi; baliqlarning turlari; baliqlarning yoshiga; tabiiy ozuqa bazasining holati va undan baliqlarning oziqlanish darajasi; suv va tuproqning sifati hisobi) bilan birga, omuxta ozuqalarning miqdori va sifati; ozuqalarni tarqatish texnikasi va boshqa omillarning umumiy ta'siriga bog'liq.

Shuningdek, texnologik jihatdan havuzga baliq qo'yish zichligi ko'rsatkichi ham muhim sanaladi. Baliq ishlab chiqarishning ma'lum darajada intensivlashtirilgan (meliorativ tadbirlar, ozuqa organizmlarining introduksiyasi, hovuzlarni o'g'itlash, baliqlarga oqsilga boy ozuqalar berilishi va b.) sharoitida hovuzning eng yuqori baliq mahsuldorligi va baliqning standart og'irligiga erishiladigan baliq qo'yilishi zichlashtirilgan deb ataladi. Hovuzga baliq qo'yish zichligi intensivlashtirish darajasiga qarab normal holatdan 2-5 marta yuqori bo'lishi mumkin.

Umuman olganda hovuz baliqchiligida qo'llanilayotgan intensivlashtirish tadbirlari bilan birga, havzaga bitta turdagi va yoshdagi baliqlarni qo'yishni zichlashtirish, havzaga baliqlarni aralashtirib qo'yish, qo'shimcha baliqlar qo'yish va polikultura hisobiga baliq mahsuldorligini oshirishga erishish mumkin.

## XULOSA

Baliqchilik tarmog'i iqtisodiy samaradorligini baholashda tarmoqni qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridan tubdan farq qiluvchi xususiyatlarini nazarda tutishni maqsadga muvofiq hisoblab, quyidagi xulosalarni shakllantiramiz.

1. Baliqchilik chorvachilikning muhim tarmoqlaridan sanalib, uni samaradorligini baholash tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Tarmoqning ushbu xususiyatlarini nazariy jihatdan mahalliy olimlarimizlarning tadqiqotlarida alohida e'tibor qaratilgan. Bizning fikrimizcha, hovuz baliqchiligi muhim manba sanalgani holda, baliqchilikning maxsus hovuzlar yoki inshootlar (qafas va b.) da baliqlarning tez o'sadigan turlarini ko'paytirish bilan shug'ullanadigan quyi tarmog'i hisoblanadi.

2. Hovuz fondidan foydalanishning samaradorligi umumiy baliq mahsuldorligi va inshootlar qiymatining bir birligiga to'g'ri keladigan baliq mahsuloti bilan tavsiflanadi. 1 ga yaylov hovuziga to'g'ri keladigan inshootlar qiymati ulushining oshishi bilan hovuz fondidan foydalanish samaradorligi o'sadi.

3. Baliqchilikni intensivlashtirish ko'rsatkichlarini uchta guruhga bo'lib tavsiflash tavsiya etilgan. Xususan, 1-guruh. Intensivlashtirish darajasi bo'lib, intensivlik darajasini tavsiflaydi va omilli, ya'ni hovuzlar maydonining bir birligiga to'g'ri keladigan mablag'lar va mehnat sarfining konsentratsiyalashuvi hisoblanadi; 2-guruh. Natijaviy ko'rsat-kichlar bo'lib, intensivlashtirish natijalarini xarajatlar bilan solish-tirmasdan tavsiflaydi va 3-guruh. Intensivlashtirishning iqtisodiy sama-radorligi ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgani holda, intensivlash-tirishning iqtisodiy samaradorligini tavsiflaydi va mablag' va mehnat sarflarining qaytimi (qoplanishi) to'g'risida xulosa chiqarish imkonini yaratadi.

4. Shundan kelib chiqqan holda, tadqiqot natijalariga ko'ra tovar baliqchiligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi darajasini uchta pog'onaga bo'lish asosida baholash tavsiya etilgan: 1-pog'ona. Bunda qo'shimcha samara qo'shimcha xarajatlardan 30-50 foizgacha yuqori bo'ladi. Ya'ni, QS > QX. 2-pog'ona. Bunda qo'shimcha samara qo'shimcha xarajatlardan 50 foizdan yuqori bo'ladi. QS > QX. Hamda 3-pog'ona. QS < QX. Bunda qo'shimcha samara qo'shimcha xarajatlardan kam bo'ladi va intensivlashtirish jarayoni samarasiz amalga oshiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B. A. Sarsenboyev. Baliqchilik sohasi rivojlanishini marketing yondashuvlari asosida takomillashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida), Monografiya, T.: "Lesson Press" MChJ nashriyoti, 2021. – B.141.
2. R.X.Ergashev, S.R.Xalikov, U.X.Beglayev. Baliqchilik iqtisodiyoti. Darslik, – T., "Navro'z" nashriyoti, 2020. – 298 b.
3. I. A. Yunusov. Baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo'llari. i.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2020. – 136 b.
4. Komilov B.G., Xalilov I.I. Daryo forelini yetishtirish – O'zbekistondagi fermerlar uchun yuqori daromadli agrotijoriy imkoniyat. Yer energiya bioloxillik, Axborot byulleteni, № 5, 01.12.2014 y., – B.24.
5. Xusenov S.Q., Niyozov D.S. va Sayfullayev G'.M. Baliqchilikchilik asoslari (oliy o'quv yurtlari talablari uchun o'quv qo'llanma), "Buxoro" nashriyoti, 2010, – B.99.
6. Shohimardonov D.R. Mintaqalarda baliqchilikni rivojlantirish, "HILOL MEDIA" MChJ, Toshkent-2010, – B.26.
7. Kamilov B.G., Kurbanov R.B., Salixov T.V. Baliqchilik (O'zbekistonda karp baliqlarini ko'paytirish), Toshkent, "Chinor" ENK, 2003, – B.13.
8. В.И.Радюк. Прудовый фонд рыбоводного предприятия. Главное управление образования, наука и кадров. https://refdb.ru/look/2680869.html

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.